

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**
№ QD30628088

1. Loyihaning turi

Shartnoma

2. Loyihaning nomi

Boshqa korxonalariga neft mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Sariosiyo tumani Obodonlashtirish boshqarmasi. 24.01.2022

Sariosiyo tuman Obodonlashtirish boshqarmasi hamda «Termiz neft bazasi» M.Ch.J bilan Shartnomaning taxminiy umumiyligi summasi QQS bilan 99 999 908 (To'qson to'qqiz million to'qqiz yuz to'qson to'qqiz ming to'qqiz yuz sakkiz) so'mni tashkil qiladigan "Boshqa korxonalariga neft mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida"gi shartnoma loyihasi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va ushbu loyihani qabul qilish maqsadga muvofiq.

Yuridik xizmat ko'rsatish markazi

Bosh yuriskonsulti



A.Meliqulov.

24.01.2022

2022 yil 24-Yanvar

Keyingi o'rinda «Yetkazib beruvchi» deb ataluvchi «Termiz neft bazasi» M.Ch.J. nomidan X.Qosimov asosida faoliyati yurituvchi filial boshlig'i X.Qosimov bir tomonidan va «Iste'molchi» deb ataluvchi Sariosiyo Obodonlashtirish bulimi nomidan nizomiga asosida faoliyat yurituvchi Z.N.Muxammadiev ikkinchi tomonidan, ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi asosida tegishli rusum va miqdordagi neft mahsulotlarini yetkazib berish, «Iste'molchi» esa yetkazib berilgan neft mahsulotlarini qabul qilib olish va haqini to'lash majburiyatlarini ushbu shartnomada kelishilgan shartlarda bajarishni o'z zimmalariga oladilar.

1.2. Tomonlar o'zaro kelishilgan holda ma'lum davr (oylik, choraklik yoki yillik davr) uchun yetkazib berilishi ko'zda tutilgan neft mahsulotlari turlari, assortimentlari va miqdorlarini ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi spetsifikatsiya orqali belgilab oladilar.

Spetsifikatsiya ma'lumotlaridan tomonlar o'z shartnomaviy majburiyatlarini bajarishda, jumladan «Iste'molchi» buyurtmalarni shakllantirishda, «Etkazib beruvchi» esa neft mahsulotlarining zarur zahirasini oldindan yaratishni rejalashtirishda foydalaniладilar.

2. NEFT MAHSULOTLARI NARXLARI VA HISOB – KITOBI TARTIBI

2.1. Shartnomaning taxminiy umumiyligi summasi QQS bilan **99999906 (To'qson to'qqiz million to'qqiz yuz to'son to'qiz ming to'qqiz yuz olti)** so'mni tashkil qiladi. Shudan QQS summasi **13043466 (O'n uch million qirq uch ming to'rt yuz oltmis olti)** so'm.

2.2. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining narxlari «Yetkazib beruvchi» tomonidan Budjet tashkilotlari, paxta xomashyosi va g'alla ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari va paxta to'qimachilik klasterlari, "O'zbekiston temir yo'llari"

AJ, "Toshshaxartransxizmat" AJ, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha davlat k orxonalariga dizel yoqilg'isidan tashqari boshqa neftmahsulotlari, hamda boshqa iste'molchilarga baroqha neft mahsulotlari, neftni qayta ishlash zavodlaridan birja savdolari orqali sotib olish va tashib keltiri sh xarajatlari hamda sotish bo'yicha neft baza ustamasidan shakllanadi.

2.3. «Etkazib beruvchi», «Iste'molchi»ning buyurtmasi olingan zahoti yetkazib berilishi so'rangan neft mahsulotlarining o'sha kundagi joriy narxlarini unga ma'lum qiladi. «Iste'molchi» mazkur narxlar asosida buyurtmadagi neft mahsulotlari partiyasining tegishlihajmi uchun 100 foiz oldindan to'lovlarini 5 kun ichida amalga oshiradi. Aks holda «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlari uchun yangi joriy narxlarni qo'llashi mumkin.

2.4. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlari uchun to'lovlar «Etkazib beruvchi»ning bankdagagi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. YETKAZIB BERISH TARTIBI VA MUDDATLARI

3.1. Neft mahsulotlari «Etkazib beruvchi»ning omboridan yoki unga qarashli filiallardan «Iste'molchi»ning buyurtmasi va unda yetkazilishi so'rangan neft mahsulotlari uchun to'lovlar kelishilgan muddatda oldindan 100% amalga oshirganligini tasdiqlovchi to'lov hujjati nusxasi taqdim etilganda yetkazib beriladi.

3.2. Neft mahsulotlari «Iste'molchi»ga «Etkazib beruvchi»ning maxsus avtotransportida belgilangan tartibda yetkazib beriladi. Neft maxsulotlarini shuningdek «Iste'molchi» tomonidan barcha yongin va texnika xavfsizlik talablariga rioya qilish bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan holda o'ziga tegishli yoki ijaraga olingan maxsus transport vositasida olib ketilishi mumkin va bunday holatda tashish harajatlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

3.3. Neft mahsulotlari omboriga neft mahsulotini tashuvchi avtomobil sisternalari 1510-84 Davlat standarti talabiga javob berishi shart. Aks holda avtotransport vositalari omor hududiga kiritilmaydi va ularga neft mahsulotlarining quyilishiga ruxsat etilmaydi. Bunday avtotransport vositalarining bo'sh ketishi uchun «Etkazib beruvchi» javobgar bo'lmaydi.

3.4. Neft mahsulotlari qo'yilgan avtotsisternalar («Iste'molchi»ning avtotransportida olib ketish xolatlari bundan mustasno) «Iste'molchi»ning talabiga binoan «Etkazib beruvchi»ning yoki uning bo'linmalari tomonidan amaldagi me'yoriy texnik hujjatlarga (2417-85 davlat standartiga) mos tarzda tamg'alanadi.

3.5. Neft mahsulotlari ushbu shartnomaning 3.1. bandida keltirilgan hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 2 kun ichida yetkazib beriladi. Neftni qayta ishlash zavodlaridan yetkazib berilmasligi yoki temir yo'l tashkilotlarining aybi bilan yuzaga kelgan neft mahsulotlari ta'minotidagi uzilish holatlarida «Etkazib beruvchi» tomonidan «Iste'molchi»ni bu haqda habardor qilingan holda tomonlar yetkazib berishning boshqa muddatini o'zaro kelishib olishlari mumkin.

4. NEFT MAHSULOTLARINI QABUL QILISH TARTIBI

4.1. Neft mahsulotlari miqdor buyicha qabul qilish "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini miqdor jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-6-sonli va sifati bo'yicha esa "Ishlab chiqarish texnika va halq iste'moli mollarini sifat jixatdan qabul qilib olish tartibi to'g'risida"gi P-7-sonli yuriqnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlар talablari asosida amalga oshiriladi.

4.2. «Iste'molchi»ning vakili neft mahsulotlarini olayotgan vaqtida mahsulotning sifati va miqdorini joyida tekshirib oladi.

4.3. Neft mahsulotlarini yetkazib bergenlik to'g'risidagi tegishli hujjatlar «Etkazib beruvchi»ning omborida yoki unga qarashli filiallarda, ayrim hollarda «Iste'molchi»ning hududida rasmiylashtiriladi va ularni «Iste'molchi» tomonidan bunga vakolat berilgan ishonchnomasi asosida vakili imzolaydi va neft mahsulotlarini qabul qilib oladi. Egalik xuquqi, tasodifiy nobud bo'lishi, neft maxsulotlariga ziyon yetish xavfi «Etkazib beruvchi»ombori yoki filiali xududidan chiqqan vaqtidan boshlab «Iste'molchi»ga o'tadi.

5. NEFT MAHSULOTLARINING SIFATI

5.1. «Etkazib beruvchi» «Iste'molchi» ga sifati Davlat standartlariga va texnik shartlarga javob beradigan neft mahsulotlarini yetkazib berishni kafolatlaydi. Yetkazib beriladigan neft mahsulotlarining sifati 1510 va 2517-sun Davlat standartlari va texnik shartlarga mos bo'lishi hamda bu neft mahsulotlarini avtotransport vositalariga yuklash va tashib yetkazilishi kuzatilishiga oid rasmiylashtirilgan xujjatlarda qayd etilishi lozim.

5.2. Neft mahsulotlarini olishda «Iste'molchi» ularning sifatini, shuningdek sifat pasportini talab qilish xuquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolik Kodeksiga va «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xukukiy bazasi to'g'risida»gi qonuniga binoan javobgar bo'ladilar.

6.2. «Etkazib beruvchi» neft mahsulotlarini o'z vaqtida yetkazib bermaganlik uchun har bir kechiktirilgan kun uchun vaqtida yetkazilmagan neft mahsulotlari summasining 0.1 foizi, lekin 10 foizidan ortiq bo'lмаган miqdorda penya to'laydi.

6.3. «Yetkazib beruvchi» neft mahsulotlari sifatini o'z hisobidan tiklab berish bilan bir qatorda «Iste'molchi»ga yetkazib berilgan sifati lozim darajada bo'lмаган neft mahsuloti qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

6.4. «Iste'molchi» belgilangan muddatda olinmagan va yetkazib berilgan neft mahsulotlarini olishdan sababsiz bosh tortganligi uchun «Etkazib beruvchi»ga olinmagan mahsulot umumiyligi qiymatining 5 foizi miqdorida jarima to'laydi va ta'minotchi olinmagan mahsulot uchun mahsulotning to'lik qiymatini undirish huquqiga ega.

6.5. «Iste'molchi» o'zining hududiga olib kelingan neft mahsulotlarining qabul qilishda amaldagi yong'in va texnik havfsizligi talab va me'yordagi to'liq amal qilinishiga to'liq javobgardir.

6.6. «Iste'molchi» yetkazib berilgan neft mahsulotlarini saqlashning texnikaviy shart-sharoitlari va havfsizligi uchun amaldagi qonunlarda nazarda tutilgan tartibda javob beradi.

7. FORS-MAJOR HOLATLAR

7.1. Tomonlardan birortasi ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan va bunga fors-major holatlar, ya'ni yengib bo'lmaydigan kuch (favqulotda va muayyan sharotlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in, sel, do'l, jala va boshqa tabiiy ofatlar)) sabab bo'lganligini isbotlasa, javobgar bo'lmaydi.

8. KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH VA BOSHQA SHARTLAR

8.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

8.2. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni xodim o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rinishiga kafolat beradi.

8.3. Ushbu shartnomaning bajarilishida yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'tasida o'zaro muzokara yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda esa nizolar belgilangan tartibda iktisodiy sudlar orqali hal etiladi.

8.4. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda bo'llib, har ikkala tomon imzolagandan keyingina haqiqiy hisoblanadi.

8.5. Ushbu shartnoma 2 nusxada tuzildi va teng xukuiy kuchga ega.

8.6. Shartnoma tomonlar o'tasida imzolangan va agar «Iste'molchi» byudjet tashkiloti bo'lsa, bunga qo'shimcha ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining xududiy g'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

9. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI

«TA'MINOTCHI»	«ISTE'MOLCHI»
«Termiz neft bazasi» M.Ch.J. Toshkent sh "O'zsanoatqulishbank" ATB MFO: 00432 STIR: 200473847 x/r: 222604000400556749701	Sariosiyo Obodonlashtirish boshqarmasi manzil: Sariosiyo t. Afrosiyob maxallasi "O'zsanoatqulishbank" ATB Sharg'un filiali MFO: 00014 STIR: 300355032 x/r: 100022860222177011503110001
Direktor: X.Qosimov	
Bosh xisobchi: M.Toshmirzayev	Boshqarma boshlig'i: Z.N.Muxamadiyev
Ichki-sotish bo'limi: I.Toshboyev	
M. O'.	M. O'



2022 yil " 24 "yanvardagidagi
DBK 17-sonli shartnomaga ilova

S P E S I F I K A S I Y A

Neft mahsulotini ng nomi	Dav. STTSN	O'lechov birligi	Narxi	Yillik miqdori	Etkazib berisi summasi	QQS	Summasi
AI-80		kg.					
AI-91		tn.					
AI-92		tn.					
AI-95		tn.					
D/YO		tn.					
D/YO EKO		kg.	11546	8661	99999908	15%	13043466

Izoh: neft mahsulotlari narxlari birja savdolari natijalariga ko'ra o'zgaradi.



X.Qosimov



M.O.

Z.Muxamadiyev



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SARIOSIYO TUMANI HOKIMINING
FARMOYISHI**

Sariosiyo tumani, A.Qahhor ko'chasi 1-uy, 191001, tel.: 76-48-7-64-62, faks: 76-48-7-66-66, sariosiyo.t@exat.uz

2022 - yil 21 - yanvar

6-8-116-F/22

Sariosiyo tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 73-moddasiga asosan 2022 yil Zaxira mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirish maqsadida:

1. Tuman mahalliy budjetining Zaxira mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlarni amalga oshirishga;
 - Tuman hokimligiga:
 - tuman hokimligi ma'muriy binosining xonalariga xo'jalik mollari sotib olish uchun 10 600,0 ming so'm;
 - tuman hokimligining xizmat uylariga santexnika jihozlari sotib olish uchun 12 260,0 ming so'm;
 - Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga:
 - tumandagi og'ir mahallalar ichki yo'llarini hashar yo'li bilan toshlash shag'allash va obodonlashtirishda jalb qilinadigan texnikalar (*yuk tashuvchi, greyder va ekskavator....*)ga yoqilg'i mahsulotlari olish uchun 100 000,0 ming so'm, jami 122 860,0 ming so'm mablag' ajratilishiga ruxsat etilsin.
2. Tuman Moliya bo'limi (E.Hasanov)ga 2022 yil zaxira mablag'lari hisobidan sarf xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda o'zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.
3. Tuman G'aznachilik bo'linmasi (X.Eshqobilov)ga ajratilgan mablag'larni belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirishni ta'minlash topshirilsin.
4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (A.Xudoyqulov) va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i (Z.Muxammadiyev)lar ajratilgan mablag'larni qonunchilikda belgilangan tartibda sarflanishini nazorat qilsin.
5. Ushbu farmoyish tasdig'i Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish sharti bilan.
6. Mazkur farmoyishni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinosari A.Bo'riyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.P.Xujaqulov